

Boltaev A'zam Homidovich

Buxoro davlat universiteti

Arxeologiya va Buxoro tarixi

kafedrası dotsenti,

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

azam.boltaev.2015@mail.ru

TARIXIY O'LKASHUNOSLIK TO'GARAKLARINING O'QUVCHI-YOSHLARNI TARBIYALASHDAGI O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'lkashunoslik tarixi va tarixiy o'lkashunoslikning turlari, shakllanishi va bu soha bilan ota-bobolarimiz qadimdan shug'ullangani ammo bu o'lkashunoslik deb nomlanmagani hamda bu termin ruslar tomonidan olib kirilgani haqida ma'lumotlar jamlangan. Shuningdek, o'rta maktab va oliy o'quv yurtlarida o'lkashunoslik ishlarining olib borilishi, tashkil etilgan to'garaklar va uning yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi o'rni haqida batafsil to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'lkashunoslik, yosh sayohatchilar va o'lkashunoslar, muzey, Buxoro tarixi, Boburnoma, Rog'angaron, Xalq ta'limi bo'limi, maktab, o'lkashunoslik to'garagi, ta'lim-tarbiya, arxiv.

РОЛЬ КРУЖКОВ ИСТОРИЧЕСКОГО КРАЕВЕДЕНИЯ В ВОСПИТАНИИ УЧАЩЕЙСЯ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. В данной статье собраны сведения об истории краеведения, видах и формировании исторического краеведения, а также о том, что наши предки с древних времён занимались подобной деятельностью, хотя она и не называлась краеведением, и что сам термин был введён русскими. Кроме того, подробно рассмотрены вопросы организации краеведческой работы в средних школах и высших учебных заведениях, деятельность созданных кружков, а также их роль в воспитании молодежи в духе патриотизма.

Ключевые слова: краеведение, юные туристы и краеведы, музей, история Бухары, Бабурнама, Rogangaron, отдел народного образования, школа, кружок краеведения, образование и воспитание, архив.

THE ROLE OF HISTORICAL LOCAL HISTORY CIRCLES IN THE EDUCATION AND UPBRINGING OF STUDENT YOUTH

Abstract. This article presents information on the history of local history studies (kraevedenie), the types and formation of historical local studies, as well as the fact that our ancestors had long been engaged in similar activities, although they were not referred to as local history and that the term itself was introduced by the Russians. In addition, the article examines in detail the organization of local history work in secondary schools and higher educational institutions, the activities of established clubs, and their role in fostering patriotism among young people.

Keywords: local history studies, young tourists and local historians, museum, history of Bukhara, Baburnama, Rogangaron, Department of Public Education, school, local history club, education and upbringing, archive.

O'quvchi-yoshlarni xalqimiz tarixi va buyuk ajdodlarimiz merosi bilan faxrlanish ruhida tarbiyalashda tarixiy o'lkashunoslik to'garaklarining o'rni nihoyatda katta. Aytish joizki, bugungi kunda respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan qator o'lkashunoslik to'garaklari shunday ezgu maqsad yo'lida xizmat qilmoqda.

Tarixiy o'lkashunoslik tarixiga nazar tashlasak bu atama uzoq o'tmishga borib taqaladi. Manbalarda qayd qilishinicha, o'lkani o'rganish ishlari bizning o'lkamizda X-XII asrda boshlangan bunga misol sifatida Abu Ja'far Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarini, Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'oti turk" asarini, Abu Rayxon Beruniyning "Osor-ul boqiya" asari, XVI asrda yaratilgan Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarlarini tarixiy o'lkashunoslik sohasiga oid deb ta'kidlash mumkin. O'sha davrda o'lkashunoslik sohasi hali tariqqiy etmagan va bu termin hali muomalaga bo'lmagan. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, bu asarlarni tarixiy o'lkashunoslik va o'lka tarixini targ'ib qiluvchi manbalar sifatida e'tirof etish mumkin.

Ilmiy bilim sifatida o'lkashunoslik Rossiyada XVIII asrdan shakllana boshladi (ammo "o'lkashunoslik" atamasining o'zi faqat XX asr boshlarida qo'llanishga kiritilgan). Rus olimi M.V.Lomonosov o'z o'lkasini mukammal o'rganish maqsadida 1761 yil 30 savoldan iborat javob varaqasini (anketa) tuzib, aholi o'rtasida tarqatgan. Ayni shu bilan o'lkashunoslik faniga asos solingan – deb yozadi. A.M.Bolshakov ham bu ma'lumotlarni tasdiqlaydi va M.V.Lomonosovni rus o'lkashunosligining otasi deb qayd qiladi. Ammo, tadqiqot jarayonida yana shular ayon bo'ldiki, bu atamani ilk bor buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) ham qo'llagan va pedagogik tomondan o'lkashunoslikni o'rganishning g'oyaviy jihatlarini asoslagan. U o'lkashunoslikni ikkiga bo'ldi, shakliy va tashkiliyga. Tashkiliy o'lkashunoslikning o'zi uchga bo'lingan ilmiy, jamoa va maktab o'lkashunosligiga.

O'lka tarixini o'rganish ishlari bizning hududimizga ancha oldin boshlangan bo'lsada, o'lkashunoslik sohasi va yo'nalishi bizning hududimizga Rossiyadan ancha keyin, ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kelgan deb qayd qilnadi. Lekin sho'ro davrida sovet rahbariyati yoshlar ongida sotsializm, kommunizm g'oyalarini va sovet jamiyati rahbarlariga nisbatan muhabbatni shakllantirish maqsadida maktablarda o'lkashunoslik to'garaklari tashkil etish vazifasini qo'ydi. Bu kabi ma'lumotlarni arxiv hujjatlarida uchratish mumkin. Masalan, hukmron mafkura rahbarlari tomonidan XX asr 50 yillardan boshlab Buxoro muzeyi ilmiy xodimlari maktab jamoasi bilan birga yangi o'quv yilida o'lkashunoslik sohasiga jiddiy e'tibor berishi va sentyabrning ikkinchi yarmidan viloyatdagi 15 ta maktabda yosh o'lkashunos to'garaklarini tashkil etish va rasmiylashtirish vazifasi qo'yilgan. 1949 yilning uchinchi choragida oltita joyda (tuman madaniyat uyi va kolxoz yig'ingohida) o'lkashunoslik to'garagini ochish uchun tayyorgarlik ishlari olib borilgan.

Hujjatlarda o'lkashunoslik sohasini targ'ib qilish uchun quyidagi choralar ko'rilganini kuzatish mumkin, avgustdagi o'qituvchilar yig'ilishida o'lkashunoslik to'garaklarining metodik-ko'rsatmasi tasdiqlanadi. Viloyat gazetasida o'lkashunoslik faoliyatini ommalashtirish uchun katta maqola e'lon qilinadi va radioda uchta eshittirish efirga uzatiladi.

Olib borilgan ishlar natijasida o'lkashunoslik sohasi viloyatda ancha qiziqishga sabab bo'ladi va bu sohadagi muammolarni echish uchun muzey rahbarlari va xodimlaridan jiddiy shug'ullanish talab etiladi. Haftaning uch kuni, ya'ni seshanba, payshanba va juma kunlari muzeyda o'lkashunoslik kunlari deb e'lon qilinadi. O'sha kunlarda muzey ilmiy xodimlar o'lkashunoslik bo'limi faoliyati bilan shug'ullangan va to'garak vakillarini qabul qilib ularga maslahat va yordam berishgan.

Arxiv ma'lumotlarida qayd etilishicha, muzey qoshida maktab komissiyasi tuziladi va Buxoro shahridagi Xalq ta'limi bo'limi tavsiyasiga ko'ra, unga shahar maktablaridan 25 ta faol o'qituvchi jalb qilinadi. Komissiya ettita seksiyaga bo'linib ish olib boradi (*Ettita seksiyaning 3 tasi boshlang'ich sinflar va 4 tasi (tabiatshunoslik, tarix-arxeologiya, fizika-matematika va til, adabiyot va folklor) katta yoshdagilar uchun edi*). Bundan ko'zlangan maqsad maktab bilan muzey o'rtasida tajriba almashish, ma'lum bir fanlarga ixtisoslashgan maktab o'lkashunosligi xonalarini tuzish va maktab o'quvchilariga o'lka tarixini o'rgatishdan iborat edi.

Yozgi ta'til paytida maktab o'quvchilari bilan o'lkani o'rganish borasida turli tarixiy yodgorliklarga turistik sayohatlar omalga oshiriladi. Sayohat davomida yig'ilgan ashyolar umumlashtirilib, muzeyda maktab o'lkashunosligi ko'rgazmasi va maktablarda o'lkashunoslik burchaklari tashkil etiladi. Bizning o'lkada bu yo'nalishdagi ishlar mustaqillikgacha davom etgan. Asosan bu o'lkashunoslik to'garaklarida hukmron mafkura g'oyalari targ'ib qilinadi.

O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasasi, ayniqsa "Yosh sayohatchilar va o'lkashunoslar" markazlarining asosiy vazifalaridan biri – o'lkamiz tarixi va madaniy yodgorliklari, uning milliy va ma'naviy qadriyatlarini tiklash hamda o'quvchi – yoshlarimizga o'rgatishdan iborat edi.

Buxoro viloyatida 1952-yili viloyat xalq ta'limi boshqarmasiga karashli "Yosh sayyohlar va o'lkashunoslar" stansiyasi o'z faoliyatini boshlagan. Uning faoliyati Karimov Safo Baqoevich tomonidan tashkil etilgan.

Shu bilan birga bu ishlarga muzey jamoasi va Buxoro turistik sayohat markazlari ham keng qamrovli ishlar olib borgan. Arxiv hujjatlarining ma'lumotiga ko'ra, muzey ilmiy xodimlari 1952 yil davomida "Maktab o'lkashunosligining vazifalari" mavzusi yuzasidan butun viloyat maktablarida ma'ruzalar o'qishgan. Shu davrda Buxoro muzeyida maktab o'lkashunosligi yo'nalishida ikkita to'garak tashkil etilgan bo'lib, unga maktab o'qituvchilaridan 25 nafari qatnashgan va ular uchun 21 ta mashg'ulot darsi tashkil etilgan. 1963 yilga kelib to'garak ishtirokchilari sonining ortgani bois to'garak mashg'ulotlari har hafta olib boriladi va ularda 20 ta maktabning o'lkashunoslik to'garagi a'zolari ishtirok etadi. Mashg'ulotlarda tabiat, sovet jamiyati va inqilob tarixi bilan bog'liq masalalar o'rta tashlangan va shu mavzular doirasida to'garak a'zolari attestatsiyadan o'tkazilgan. Maktab to'garaklari tomonidan muzeyga 300 ga yaqin ashyo topshiriladi.

Stansiya rahbari S.B. Karimov O'zbekistonga xizmat ko'rsatgan o'qituvchi geograf-tarixchi bo'lib, 1952-1962 yillar davomida "Yosh sayyoh-o'lkashunoslar" stansiyasi rahbari bo'lib ishlagan. Stansiya Buxoro shahridagi Ro'g'angaron ko'chasi 31 uyda tashkil etilgan bo'lib, unda o'lkashunoslik to'garagidan tashqari yana oltita (veloturizm foto-kino, ganchkorlik, aviamodel, kemamodel va duradgorlik) to'garak faoliyat ko'rsatgan. Har bir to'garakka 50 nafar o'quvchi jalb etilgan bo'lib, mashg'ulotlar 2 smenada olib borilgan. 25 nafar o'quvchi 1-smena bo'lsa, 2-smenada 25 nafar o'quvchiga hunar sirlari o'rgatilgan. Bu kabi tashkilotlar o'lka tarixini yosh avlodga o'rgatish uchun kuch g'ayratini ayamagan va bu ishlar bilan hozir ham shug'ullanmoqda.

Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston Respublikasining milliy mafkurasini qaror toptirishga qaratilgan Davlat siyosatining asosiy maqsadlaridan biri, har tomonlama etuk va barkamol avlodni tarbiyalash bo'lib, barkamol avlodni tarbiyalashda uzluksiz ta'lim tizimining har bir bo'g'inining o'z o'rni, ilmiy, ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati bordir.

O'tgan davr mobaynida Buxoro viloyati "Barkamol avlod" bolalar markazida o'lkashunoslik to'garagining yil davomida olib borgan faoliyati natijalari yuzasidan konferensiyalar tashkil etilgan va birinchi o'rinni olgan to'garaklar respublika bosqichiga yo'l olgan. Hozirda ham bu ishlar amalga oshirilmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 28 fevralda qabul qilgan "Maktabdan tashqari ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 50-sonli qarori asosida Respublikamizda 200 dan ortiq "Barkamol avlod" bolalar markazlari qatorida Respublika bolalar o'lkashunoslik va ekologiya to'garaklari tashkil etildi.

Bugungi kunda Buxoro viloyatida maktab va bolalar markazlari qoshida 244 ta o'lkashunoslik va ekologiya to'garaklari tashkil etilgan. Shunday 87 tasi bevosita o'lkashunoslik to'garaklaridir.

Tarix fanining tarkibiy qismi bo'lgan o'lkashunoslikning asosiy vazifasi jamiyat rivoji umumiy qonuniyatlarini o'rganish asnosida hududiy o'ziga xoslik va xilma-xillikni aniqlashdan iboratdir. O'lkashunoslik ijtimoiy madaniy sohaning ko'rinishi sifatida esa yana bir qator ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni ham bajaradi: o'lkashunoslikning ilmiy-tadqiqotchilik vazifasi tabiiy, tarix va madaniyat sohalarida ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish va amalga oshirishga yo'naltirilgan; hujjatlashtirish va yodgorliklarni asrash vazifasi ularni aniqlash, asrash, muzey va arxiv fondlarini, o'lka tarixi va madaniyatining turli masalalariga oid ma'lumotlar bankini shakllantirish: ma'rifiy-tarbiyaviy vazifasi esa ta'lim va tarbiya sohasida muhim rol o'ynab, tarixiy ongni shakllantirish, vatanparvarlik hissini tarbiyalash; tashkiliy vazifasi esa insonlarni birlashtirish, ularning e'tiborlarini o'zlari yashab turgan hudud tarixini bilishga qaratish va ijodiy qiziqishlarini rag'batlantirishdan iborat.

Tarixiy o'lkashunoslik mahalliy tarixiy tajribaning o'zlashtirilishi bilan bir paytda, madaniy, ma'naviy va tabiiy merosni o'rganish, asrashga yo'naltirilgan muhim faoliyatdir.

32 O'lkashunoslikning asosiy vazifalari esa uning tashkiliy jihatlari va shaklida, ya'ni o'lkashunoslik jamiyatlari va muassasalari mavjudligida, ilmiy-tadqiqot faoliyat va amaliy ish yo'nalishlari rivojida namoyon bo'ladi. Shu o'rinda tarixiy o'lkashunoslik 3 turga ya'ni 1) ilmiy – davlat o'lkashunosligi; 2) jamoat o'lkashunosligi; 3) maktab o'lkashunosligiga bo'linishini qayd qilish mumkin. Tarixiy o'lkashunoslikning bu uch turi o'zaro aloqador bo'lib, ular bir birini to'ldiradi.

Davlat o'lkashunosligi bilan Respublika tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish qo'mitasi, muzeylar, Respublika Fanlar akademiyasi Tarix, Arxeologik tadqiqotlar instituti va Markazi shug'ullanadi.

Jamoat o'lkashunosligi qishloq, ovul, tuman, shahar va viloyat hududidagi tarixiy obidalarni saqlash va asrash ishlariga boshchilik qilish bilan birga joylarda istiqomat qilayotgan xalqlarning kelib chiqishi, turmush tarzi, urf-odati kabi masalalarni o'rganadi. Jamoat o'lkashunosligiga havaskor arxeologlar, kolleksionerlar, o'lka tarixini o'rganish bilan shug'ullanuvchi jamiyat va uyushmalar kiradi. Maktab o'lkashunosligi esa tarix, geografiya fanlari o'qituvchilarining bevosita rahbarligida tashkil qilinadi. Maktab o'lkashunosligi a'zolari eng faol o'quvchilar orasidan tanlab olinadi. Ular o'lka tarixiga doir arxeologik, etnografik, toponimik, numizmatik materiallarni to'plash bilan shug'ullanib, maktabda o'lkashunoslik burchagini tashkil etishda tashabbuskor bo'ladilar.

O'lkashunoslik fan sifatida yana bir shunday muhim xususiyatga egaki, uni vujudga kelishida va o'zlashtirishda tadqiqotchi mutaxassislar bilan bir paytda keng omma ishtirok etadi, u mazmun mohiyati bilan ommalashgan soha. O'lkashunoslik bilan shug'ullanish jarayonida o'z yurtiga muhabbat, faxr va g'urur hissi vujudga kelishi bilan bir paytning o'zida, odamlarda yashab turgan joyi haqidagi bilimlarga ega bo'lish imkoni paydo bo'ladi. Ma'lum ma'noda ularning ishtiroki orqali muzey va arxiv fondlari ham yangi materiallar bilan boyitib boriladi. So'nggi yillarda mintaqaviy tarixni o'rganishga e'tiborning kuchaygani munosabati bilan, o'lkashunoslik tadqiqotlarining ham ahamiyati oshib borayotganligini ta'kidlash joizdir. Tarixiy o'lkashunoslikni o'rganish zarurati uning madaniyat va fanning ajralmas qismi ekanligi bilan belgilanadi. O'lkashunoslik tadqiqotlari natijalaridan tarixiy mavzulardagi fundamental asarlarda foydalanilgan. O'lkashunoslik muhim ijtimoiy hodisa bo'lib uning tarixini o'rganish bu hodisaning mohiyatini anglash, rivojlantirish, turli ilmiy yo'nalishlarni ishlab chiqish, muzeylar, maktab va oliy ta'lim muassasalari ta'lim tarbiya ishlari yangi tashkiliy shakllarini yaratishda, jamiyat tarixiy ongi va xotirasini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, o'lkashunoslik to'garaklarining faoliyati natijasida o'quvchilar bo'sh vaqti mazmunli o'tadi. Ularni vatanparvar va barkamol qilib tarbiyalashda o'lkashunoslik to'garaklarining o'rni kattadir. Ammo, oxirgi vaqtda tumanlarda o'lkashunoslik to'garaklariga e'tibor pasaygan va o'quvchilarning to'garaklarga qatnashi susaygan. Mana shularni inobatga olib rahbariyat tomonidan bu sohaga yana ko'proq e'tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Lekin bir rahbariyat emas, to'garak rahbarlari ham o'z ustlarida ishlab, o'quvchilarni to'garaklarga jalb qilish choralari ko'rsalar nur ustiga nur bo'lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Болшаков А.М. Введение в краеведение. – Прибой. 1929. – С.116.
2. Buxoro viloyat davlat arxivi, 1175 – fond. 1-ro'yxat. 18-hujjat. 36-varaq.
3. Buxoro viloyat davlat arxivi, 1175 – fond, 1-ro'yxat, 18- yig'ma jild, 49-varaq.
4. Buxoro viloyati "Barkamol avlod" bolalar maktabi arxivi. 2006 yildagi hisobot. 1-varaq.
5. Buxoro viloyati "Barkamol avlod" bolalar maktabi arxivi. 2006 yildagi hisobot. 5-varaq.
6. "Barkamol avlod" Respublika bolalar o'lkashunoslik va ekologiya markazining 2011 yil 2 noyabrdagi hisoboti.
7. Buxoro viloyat "Barkamol avlod" bolalar markazlarining 2018 yil 20 sentyabdagi hisoboti.
8. Dala tadqiqoti materiallari. Buxoro viloyati "Barkamol avlod" bolalar maktabi direktor o'rinbosari Kazimova Guljahon opa bergan ma'lumot. 2025 yil 25 oktyabr.
9. Набиев А. Тарихий ўлкашунослик. –Тошкент: Ўқитувчи. 1996. – Б.4.
10. <http://cheloveknauka.com>
11. https://old.bigenc.ru/domestic_history/text/2105499

Murodova Dilrabo Shomurodovna

Buxoro davlat universiteti

Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI TARIXIGA OID ARXIV MANBALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX yuz yillikning 80-yillari oxiri va 90-yillari boshidagi keskin siyosiy vaziyatlar avj olgan bir davrda Buxoro viloyatida tibbiyot institutining tashkil qilinishi bilan bog'liq tarixiy jarayonlar tahlil qilingan. Tibbiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasasi faoliyatining yo'lga qo'yilish shart-sharoitlari, mutaxassisliklar, ta'lim tizimi, professor-o'qituvchilar tarkibi va ishga qabul qilish, moddiy-texnik bazaning mustahkamlanishi, samarali o'quv-tarbiyaviy faoliyatni tashkil qilish masalalari arxiv manbalari asosida ilmiy tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Afshona qishlog'i, Abu Ali Ibn Sino, tibbiyot, oliy ta'lim, shifokor, muassasa, bino, kafedra, davolash ishi, hamkorlik.

АРХИВНЫЕ ИСТОЧНИКИ ПО ИСТОРИИ БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА

Аннотация. В данной статье анализируются исторические процессы, связанные с созданием медицинского института в Бухарской области в период обострения напряженной политической ситуации в конце 80-х и начале 90-х годов XX века. На основе архивных источников проведен научный анализ условий налаживания деятельности высшего образовательного учреждения медицинского направления, специальностей, системы образования, профессорско-преподавательского состава и приема на работу, укрепления материально-технической базы, организации эффективной учебно-воспитательной деятельности.

Ключевые слова: село Афшона, Абу Али Ибн Сина, медицина, высшее образование, врач, учреждение, здание, кафедра, лечебное дело, сотрудничество.

ARCHIVE SOURCES ON THE HISTORY OF THE BUKHARA STATE MEDICAL INSTITUTE

Abstract. This article analyzes the historical processes associated with the establishment of a medical institute in the Bukhara region during a period of escalating tense political situations in the late 1980s and early 1990s. The conditions for establishing the activities of a higher educational institution in the field of medicine, specialties, the education system, the faculty and recruitment, the strengthening of the material and technical base, and the organization of effective educational activities have been subjected to scientific analysis based on archival sources.

Keywords: Afshona village, Abu Ali Ibn Sina, medicine, higher education, doctor, institution, building, department, medical work, cooperation.

Kirish. XX asrning 70-yillariga qadar respublikada tibbiyot xodimlarini tayyorlash 5 ta oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilgan. Buxoro viloyati shifoxonalariga zaruriy xodimlarni tayyorlash asosan Toshkent tibbiyot instituti va Samarqand pediatriya institutida amalga oshirilib, ushbu oliygoh bitiruvchilari taqsimot bo'yicha ishga yuborilgan. Biroq viloyat tibbiy muassasalarining mutaxassislarga bo'lgan talab, ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmat, diagnostika va davolash ishlarida bir qator muammolar o'z yechimini topmagan edi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu maqolada Buxoro davlat tibbiyot institutining tashkil qilinish tarixi ilmiy manbalar asosida yoritiladi.